

MAXSUS VA UMUMKASBIY FANLARNI O'RGANISHDA TA'LIM JARAYONINING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Mirsaatov R. M.

(texnika fanlari doktori, professor),

mirsaatov61@mail.ru

Kasimova G.A.

(fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent)

Toshkent davlat transport universiteti,

O'zbekiston Respublikasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola maxsus va umumkasbiy fanlarni o'rganishda ta'lim jarayonining didaktik xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ta'limda jarayonidagi tarbiya o'qitish jarayoniga tarbiyaviy daqiqalarni kiritish orqali emas, balki o'quv materialining g'oyaviy ahamiyatga ega qismlarini tanlash orqali ta'minlashga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni, pedagogik faoliyat, ta'lim metodlari, bilim, ko'nikma, malaka, o'zlashtirish, fikrlash, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish.*

Oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarini tayyorlash masalasi avvalo ta'lim jarayonida hal etiladi. Ta'lim jarayoni bu pedagog va u rahbarlik qilayotgan talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni ongli ravishda va mustahkam o'zlashtirishiga qaratilgan uzviy va hamkorlikdagi faoliyati yig'indisidan iboratdir.

Ta'lim jarayoni ta'lim maqsadi va uning asosiy tashkil etuvchilari: ta'lim mazmuni; o'qitish, ya'ni pedagog faoliyati; o'qish- bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish bo'yicha o'quvchi faoliyati; ta'lim vositalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir bilan belgilanadi. O'qitish va o'qish ma'lum shakllarda, ma'lum metodlarni qo'llash bilan amalga oshiriladi. SHunday qilib, ta'lim jarayoni mazmun, shakl, ta'lim metodlari va vositalarining o'zaro aloqador yaxlitligidan iboratdir. Ta'lim jarayoni uchun uning uchta asosiy funksiyasi xarakterli: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

Ta'lim jarayonining ta'limiy funksiyasi talabalarga ilmiy, texnik va ishlab chiqarishga oid tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, dalillarni yetkazish va ular tomonidan bu bilimlarning o'zlashtirilishi; olingan bilimlarni o'quv va o'quv-ishlab chiqarish masalalarini hal qilish uchun ko'nikmalarni shakllantirilishi; umumo'quv, politexnik va maxsus ko'nikmalarning shakllanishi; olingan bilimlarni

mustahkamlash, takomillashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi.

Ta'lim muvaffaqiyatining asosiy sharti- bu o'quvchining faol bilish faoliyatidir. Bilishning faolligi o'quvchining o'quv faoliyati sifati bo'lib, u o'quvchining o'qish mazmuni va jarayoniga munosabatida, bilimlarni samarali o'zlashtirilishiga intilishida namoyon bo'ladi.

Talabanning bilish faolligi o'qituvchini diqqat bilan tinglashida, o'rganilayotgan fan va hodisalarni sinchkovlik bilan kuzatishida, o'rganilayotgan materialning mohiyatini tushunishga intilishida va uni mustahkam o'zlashtirishida, faol fikrlash jarayonida va bilishga oid va amaliy masalalarni hal etishda ijodiy izlanuvchanlik yo'llarini qidirishida namoyon bo'ladi. Talabanning faolligi darajasi va xarakteri turlicha bo'lishi mumkin, ammo u passiv bo'lsa, ta'lim jarayonini kechishi mumkin emas.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni pedagog va talabanning o'zaro aloqador hatti-harakatlari tizimini o'z ichiga olib, unda pedagog boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik holatida bo'ladi, lekin oxirgi natija talabalarning o'zlarining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Kasb-hunar ta'limining bu fundamental qoidasi ta'lim jarayonini yaxlit holda faollashtirishning mohiyatini va zaruratini belgilab beradi. Bilish faolligi mohiyatan nafaqat o'qishda, balki o'quvchi shaxsini shakllanishida, uni tevarak atrofdagilarga, mehnatga munosabatida ham namoyon bo'lib, u o'quvchining faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Bularning barchasi o'qitish oldiga bir qator talablarni qo'yadi, ya'ni o'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tashkil etish, bu jarayonni faol, ongli, imkon qadar mustaqil, ijodiy bo'lishiga erishish lozim bo'ladi.

Ta'lim jarayonining tarbiyaviy funksiyasi, pedagog qanday qarashidan qat'iy nazar, o'qitishda doimo talabalarning tarbiyasiga ahamiyat berishida namoyon bo'ladi. Bu ta'lim jarayonining ob'yektiv qonuniyatidir. O'qitish davomida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslari shakllanadi. Ta'limning bu funksiyasi shuningdek, do'stlik, o'rtoqlik, jamoaga hurmat, ijtimoiy munosabatlarga tayyorgarlikni; mehnat intizomi, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlikni tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Ta'limda jarayonidagi tarbiya o'qitish jarayoniga tarbiyaviy daqiqalarni kiritish orqali emas, balki o'quv materialining g'oyaviy ahamiyatga ega qismlarini tanlash orqali ta'minlanadi.

Ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi funksiyasi talabalarda fikrlashning (umumiy va texnik) samarador shakllari: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash va hokazolarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonining bu funksiyalari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Kasb-hunar

kollejaridagi ta'lim jarayonining o'ziga xosligi uning rivojlantiruvchi funksiyasini oshirish zarurligidadir.

Umumkasbiy va maxsus fanlarning o'ziga xos xususiyati ularni o'qish davomida ta'lim oluvchilar yetarlicha katta hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bu bilimlarni turli o'quv va ishlab chiqarish sharoitlariga qo'llay olish ko'nikmasini ham shakllantirishdan iboratdir. Bu esa turlicha ta'lim metodlari va usullarini uyg'unlikda qo'llashni talab etadi. Asosiy e'tibor texnik adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar bilan mustaqil ishlashini tashkil etishga qaratiladi. O'qitishda turli tabiiy va sxematik ko'rgazmalarni qo'llash, ta'limning texnik vositalaridan kompleks foydalanish lozim. Maxsus fanlarning muhim xususiyati - ishlab chiqarish ta'limi bilan bog'liqligidir.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi kasb-hunar ta'limi uchun tayyorlanadigan muhandis-pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasini qo'yadi. Shunday ekan, ushbu yo'nalishda tahsil oladigan talabalarga pedagogik-psixologik sikldagi fanlardan chuqur bilim berish, ularning malakaviy amaliyotlarini talab darajasida tashkil etish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005y.205 b.
2. D.Ro'ziyeva., M.Usmonboyeva., Z. Xoliqova. Interfaol metodlar: Mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma). -Toshkent: "Fan", 2013. – 32b.
3. Relationship of parameters that characterize the quality of live cocoons Burkhanov, S.D., Mirsaatov, R.M., Khudoyberganov, S.B., Kadyrov, B.H. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2021, 677(4), 042032.
4. Ravshanbek Mirsaatov and Sardorbek Khudoyberganov, "Development of a non-destructive method determination of the maturity of Mulberry cocoons", AIP Conference Proceedings 2432, 040018 (2022) <https://doi.org/10.1063/5.0089646>.
5. R. Mirsaatov, S. Khudoyberganov, and A. Akhmedov, "Uncertainty estimation in determination of Cocoons silkiness by thickness of their shell", AIP Conference Proceedings 2612, 050010 (2023) <https://doi.org/10.1063/5.0114683>.
6. Karabayeva M.A., Mansurova M.Y., Kasimova G.A., Sultankhodjaeva G.SH. Pedagogical technologies. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. 2023, pp. 142-147. <https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7827470>